



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 373.21:796(575.1)

BO'LAJAK "TARBIYA" FANI O'QITUVCHILARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI BAHOLASH VA RAG'BATLANTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI

Abduraxmonova Dilobar Shuhratbekovna

Andijon shahar 35-Davlat ixtisoslashgan maktabi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib, baholash jarayonini nafaqat nazorat vositasi, balki o'quvchi shaxsining ijtimoiy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qayta talqin qilish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar:

individual yondashuv, baholash, rag'batlantirish, "Tarbiya" fani, o'qituvchi tayyorlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Аннотация.

В данной статье проведён глубокий анализ педагогических, психологических и практических основ подготовки будущих учителей предмета «Тарбия» к оцениванию и мотивации учащихся на основе индивидуального подхода. В исследовании обоснована необходимость переосмысления процесса оценивания не только как средства контроля, но и как важного педагогического механизма, влияющего на социальное, нравственное и интеллектуальное развитие личности учащегося в соответствии с требованиями концепции личностно-ориентированного обучения.

Ключевые слова:

индивидуальный подход, оценивание, мотивация, предмет «Тарбия», подготовка учителя, личностно-ориентированное обучение.

Abstract.

This article provides an in-depth analysis of the pedagogical, psychological, and practical foundations for preparing future teachers of the subject Tarbiya (Upbringing) to evaluate and motivate students based on an individual approach. The study emphasizes that, according to the requirements of the learner-centered education concept, assessment should be reconsidered not merely as a tool of control, but as an essential pedagogical mechanism that influences the social, moral, and intellectual development of the learner.

Keywords:

individual approach, assessment, motivation, Tarbiya subject, teacher training, learner-centered education.

Bugungi globallashuv, raqobat va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va o'zini boshqara olish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor maqsadiga aylanmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas,

balki shaxs tarbiyalovchi, psixolog, fasilitator, motivator sifatida faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarbiya fani o'qituvchisining mas'uliyati boshqa fan o'qituvchilariga nisbatan yanada kengroq bo'lib, uning baholash va rag'batlantirish faoliyati o'quvchining ma'naviy-axloqiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida baholash o'quvchilarning faqat akademik natijalarini aniqlash bilan cheklanmaydi. Bugungi pedagogik yondashuvda baholash – o'quvchi shaxsining rivojlanish dinamikasini kuzatish, motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan kompleks mexanizm sifatida qaraladi. Shuning uchun ham zamonaviy baholash tizimi o'quvchini jazolash yoki saralash emas, balki uni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, ruhlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Individual yondashuv ta'lim jarayonidagi eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, u o'quvchining shaxsiy xususiyatlari – qiziqishlari, ehtiyojlari, o'qish uslubi, psixologik holati, ijtimoiy tajribasi va temperamentini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta'sirni yo'naltirishni taqozo etadi. Individual yondashuv asosida baholash va rag'batlantirish o'quvchining o'z kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, o'zini hurmat qilishini oshiradi, ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va shu orqali tarbiya jarayonida samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish va pedagoglar kompetensiyasini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ham o'qituvchilardan zamonaviy baholash metodlarini puxta bilishni talab etmoqda. Xususan, tarbiya fani o'qituvchilarida o'quvchilarni kuzatish, diagnostika qilish, ijobiy rag'batlantirish, baholash mezonlarini shaxsga yo'naltirilgan tarzda ishlab chiqish kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab bo'lajak tarbiya o'qituvchilari baholashning psixologik jihatlari, rag'batlantirishning nozik tomonlari, individual yondashuvning metodik asoslari bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emaslar. Bu esa o'quvchilar bilan ishlash jarayonida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiya o'qituvchilarini aynan individual yondashuv asosida baholash va rag'batlantirish faoliyatiga metodik jihatdan puxta tayyorlash zarurati tug'ilmoqda [1].

Ushbu maqola mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini individual yondashuv vositasida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda baholash jarayonining pedagogik mohiyati, rag'batlantirishning psixologik mexanizmlari, individual yondashuvning afzalliklari, ta'lim muassasalarida ularni amalga oshirishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi va o'qituvchilar tayyorlashning samarali metodik tizimi taklif etiladi [2].

Individual yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari. Individual yondashuv – ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini

inobatga olgan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish tamoyilidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga ko'ra, har bir o'quvchi takrorlanmas ichki dunyoga ega bo'lgan individual shaxs sifatida qaraladi. Bu yondashuv tarbiyachi-o'qituvchidan o'quvchi shaxsini chuqur bilishni, uning psixologik xususiyatlarini tahlil qilishni va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashni talab qiladi. Individual yondashuvning asosiy pedagogik vazifalari quyidagilardan iborat, shaxsning tabiiy salohiyatini ochib berish, o'quvchining o'ziga xos fikrlash, xulq-atvor va o'qish strategiyasini qo'llab-quvvatlash, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ishonchli, xavfsiz psixologik muhit yaratish, ta'lim jarayonini o'quvchi ehtiyojlari asosida individuallashtirish, o'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish.

Individual yondashuvning tarbiya fanidagi o'rni boshqa fanlarga nisbatan yanada kengroq bo'lib, u o'quvchining nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qadriyatlari, ruhiy holati, ijtimoiy faolligi va kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida baholash kompetensiyalarini shakllantirish zarurati

Zamonaviy ta'limda baholash o'quvchining xatti-harakati yoki faoliyat natijasini belgilash bilan cheklanmasdan, balki shaxsning rivojlantiruvchi muhitdagi o'sish darajasini aniqlashning ilmiy-metodik jarayoniga aylandi. Bu holat bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisidan quyidagi kompetensiyalarni talab qiladi:

O'quvchilarni baholash va rag'batlantirishni individual yondashuv asosida tashkil etish jarayoni. Diagnostikasi asosida baholashni rejalashtirish. Individual yondashuv asosidagi baholashning birinchi bosqichi diagnostika bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi, o'quvchining psixologik holatini o'rganish, qiziqishlar va layoqatni aniqlash, ijtimoiy faoliyatni kuzatish, oilaviy omillar va tarbiyaga ta'sir etuvchi sharoitlarni tahlil qilish, o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash [3]. Bu jarayon tarbiyachi-o'qituvchiga har bir o'quvchi uchun mos pedagogik yondashuv ishlab chiqish imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy tahlillar, metodik asoslar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlash bugungi ta'lim jarayonining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Zamon talablariga mos ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va individual rivojlanish dinamikasini chuqur o'rganishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarbiya fani o'qituvchisi baholash va rag'batlantirishni shaxsga yo'naltirilgan tizim asosida tashkil eta olish malakasiga ega bo'lishi zarur [4].

Tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan baholash va rag'batlantirish metodikasi bo'lajak tarbiya o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berdi. Mazkur metodika o'qituvchilarda diagnostik ko'nikmalarni, pedagogik refleksiyaning, muloqot madaniyatini, o'quvchi shaxsini o'rganish bo'yicha professional yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, rag'batlantirishning

psixologik mexanizmlarini bilish va ularni amalda qo'llash o'quvchilar motivatsiyasini oshirish, o'z kuchiga ishonchini kuchaytirish, ijtimoiy faolligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Individual yondashuv asosidagi baholashning eng muhim jihati shundaki, u o'quvchini jazolash yoki faqat natijasi bo'yicha baholashga emas, balki uning shaxsiy o'sish dinamikasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mazkur yondashuv, ayniqsa, tarbiya fanida o'quvchilarning axloqiy-ruhiy rivojlanishini to'g'ri boshqarishda juda samarali natijalar beradi. O'qituvchi tomonidan shaxsiylashtirilgan rag'batlantirish usullarining qo'llanilishi o'quvchilar orasida ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, ishonch va hamkorlik asosidagi tarbiyaviy jarayonni yaratadi [5].

Shuningdek, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik amaliyot jarayonida baholash va rag'batlantirish strategiyalarini qo'llab ko'rishi, individual rivojlanish kartalarini yuritishi, refleksiya asosida o'z faoliyatini tahlil qilishi ularning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda tarbiya jarayonining sifatini yaxshilanishiga, har bir o'quvchiga insonparvar va adolatli yondashuvning kuchayishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan metodika ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga individual yondashuvni kuchaytirish, baholashning rivojlantiruvchi funksiyasini ta'minlash, rag'batlantirish madaniyatini to'g'ri shakllantirish va tarbiya fanining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Metodikaning amaliyotga joriy etilishi natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, o'quvchiga shaxs sifatida yondashgan pedagog tarbiyaviy jarayonni yanada samarali, ijobiy va insonparvar ruhda tashkil eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. Pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 77-b.
2. Hasanboyeva O., Yo'ldosheva N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 94-b.
3. Zunnunov A. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. 31-b.
4. Mahmudova M. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. 104-b.
5. Usmonxo'jayev Q. Zamonaviy baholash texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022. 131-b.

